

POLIFUNKSIONALLIK VA UNGA DOIR O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI QARASHLAR

Sulaymonova Zebiniso G'ayrat qizi

Annotatsiya

Maqola o'zbek tilshunosligida polifunktionallik hodisasiga doir qarashlar, polifunktional lisoniyi birliklarni yoritishga bag'ishlangan

Аннотация

Статья посвящена феномену полифункциональности в узбекском языкоznании и изучению многофункциональных языковых единиц

Annotation

The article on the phenomenon of polifunctionality in Uzbek linguistics and the coverage of multifunctional linguistic units

Tayanch so'z va iboralar: polifunktionallik, birlamchi funksiya, ikkilamchi funksiya, semantika, sintaktika, shakl, mazmun, assimetriya, valentlik

Ключевые слова и выражения: полифункциональность, первичная и, вторичная функции, семантика, синтаксис, форма, содержание, асимметрия, валентность

Key words and expressions: primary function, secondary function, semantics, syntax, form, content, asymmetry, valence

Kirish

Polifunktionallik hodisasining kelib chiqishi Praga tilshunoslik maktabi faoliyati bilan bog'liq. XX asrga kelib, boshqa fanlar qatori tilshunoslikda ham tub burilishlar yuz berdi. Tilshunoslikda yangicha qarashlar vujudga keldi. Polifunksonallik hodisasini o'rgangan tilshunos olimlar tomonidan mazkur masalaga nisbatan turliqa qarashlar bayon etilgan. Xususan, o'zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, A.Berdialiiev, A.Mamajonov, N.Turniyozov, G.Roziqova,

N.Qodirova, D.G‘aniyeva, G.Sulaymonova, T.Valiyev¹ singari olimlarning bir qator izlanishlari mazkur hodisani o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Polifunktionallik hodisasi haqida ma’lumot beruvchi manbalarda birlamchi va ikkilamchi funksiya tushunchasi polifunktionallik bilan uzviy bog‘liq ekanligi qayd etiladi. Tadqiqotchi D.G‘aniyevaning ta’kidlashicha, birlamchi va ikkilamchi funksiya tushunchasi tilshunoslikka nemis olimi Slotti tomonidan olib kirilgan.² Olimaning ma’lumot berishicha, Slottining birlamchi va ikkilamchi funksiya haqidagi qarashlari semantik va sintaktik sathnng o‘zaro muvofiq kelishiga asoslanadi. Ya’ni so‘z turkumlarining qanday lug’aviy ma’no anglatishi so‘z turkumlarining bir tomonlama xususiyati bo‘lsa, lug’aviy ma’noga xos sintaktik funksiya bajarishi ikkinchi xususiyati hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda so‘z turkumlarining ikki tomonlama xususiyati, ya’ni birlamchi va ikkilamchi funksiya yuzaga keladi. Olim birlamchi va ikkilamchi funksiyaning bir-biriga muvofiq kelmaydigan o‘rnlari mavjudligini ham e’tirof etadi. Masalan, sifatdosh semantik nuqtayi nazardan harakatni bildirsa ham, lekin aniqlovchi sintaktik funksiyasini bajaradi. Slotti tomonidan ilgari surilgan g‘oya semantik va sintaktik sath o‘rtasidagi munosabat masalasi falsafiy grammatik nazariyada katta ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramasdan, hech qaysi tilda o‘zining to‘liq tasdig‘ini topmagan.

Tilshunos olim Y.Kurilovich ham birlamchi va ikkilamchi funksiya borasidagi fikrlari bilan Slottining g‘oyasini rivojlantirdi. Y.Kurilovichning g‘oyasiga ko‘ra, birlamchi funksiya leksik ma’noga muvofiq keladigan sintaktik funksiya hisoblansa, boshqa har qanday sintaktik funksiyada kelishi esa ikkilamchi funksiya deb qaraladi. Uning fikriga asosan, tilning struktur tahlili shunga guvohlik beradiki, so‘z turkumlari va ularning sintaktik funksiyalari o‘rtasida muvofiqlik mavjud degan

¹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006; Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiysi,morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent:Fan,2010; Berdialiyev A. Ergash gapli qo‘shma gap konstruksiyalarida semantik-signifikativ paradigmatiska. – Toshkent: Fan,1989; Mamajonov A.Qo‘shma gap stilistikasi. –Toshkent:Fan,1990; Turniyozov N.,Turniyozova K. Funksional sintaksisiga kirish.Toshkent: Fan, 2003; Roziqova G.O‘zbek tilida sintaktik polisemiya. Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Farg‘ona,1999; Qodirova N. O‘zbek tilidagi affikslarda polifunktionallik. Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Toshkent, 2002; Sulaymonova G. O‘zbek tilida ot turkumidagi so‘zlarning polifunktionalligi:Filol.fan.nomzodi...diss.avtoref. – Toshkent, 2010; Valiyev T.O‘zbek tili yo‘lsozlik terminlarining struktur-semantik xususiyatlari va leksikografik talqini. Filol.fan.bo‘yicha fal. doktori(PhD) dis. avtoref. – Samarqand, 2017.

² G‘aniyeva D.A.O‘zbek tilidagi fe’lning funksional shakllarida sinkretiklik va polifunktinallik:Filol.fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Toshkent, 2012. – B.7.

“eski” nazariya o‘zining asosiga ega. So‘z turkumi har qanday so‘z birikmasi va gap strukturasida turli sintaktik funksiyalarini bajarishi mumkin degan e’tirozlarni bildiruvchilar bir so‘z turkumining turli sintaktik funksiyada kelishida muayyan iyerarxiya mavjudligini hisobga olmaydilar. Har bir so‘z turkumida asosiy, birlamchi sintaktik funksiya mavjud bo‘ladi. Birlamchi sintaktik funksiya so‘z turkumining leksik ma’nosidan kelib chiqadi va bu ma’noning o‘ziga xos transpozitsiyasi sifatida gavdalanadi³. Birlamchi va ikkilamchi funksiya borasida asosli fikrlar bildirgan Y.Kurilovichning nazariyasi polifunktionallikning keyingi davrdagi rivoji uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Olimning nazariy qarashlari ko‘pchilik tilshunoslarning birlamchi va ikkilamchi funksiya borasidagi fikrlarini oziqlantiradi. Xususan, professor A.Berdialiyev birlamchi va ikkilamchi funksiyaning sintaktik sathda namoyon bo‘lishi haqida fikrlar bildirgan.

Sintaktik funksiyalar ikki bosqichli xarakterga ega. Birinchi bosqich sintaktik funksiyalar nihoyatda umumiy, nihoyatda abstrak grammatik ma’nolar bildiradi. Bunday hollarda funksiya va ma’noda mutanosiblik bo‘ladi. Birinchi bosqich funksiyalarga ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol (sodda gaplarda); ergash gap, bosh gap(ergash gapli qo’shma gaplarda) kabi hodisalarning avtonomik tarzda tushunilishi va ular bilan bog‘liq avtonomik ma’nolar kiradi. Sintaktik birliklarning ikkinchi bosqich funksiyalari ularning ma’lum bir valentlikda reallashgan sintaktik aloqasi tufayli vujudga keladi. Bunday holatlarda ular o‘zlarining avtonomik tarzda tasavvur etilishidan farq qiladi; avtonomik ma’nolar konkret grammatik ma’nolar bilan almashinadi. Ikkinchi bosqich nuqtayi nazaridangina sintaktik birliklarning funksiya hamda ma’nosи munosabati sintaksis bilan semantikani tutashtiradi⁴. Shunday misollar keltiriladi:

Har kim aybsiz do’st qidirsa, uning do’sti kamayib qoladi gapi nutqda Har kim aybsiz do’st qidirsa, u mutlaqo do’stsiz qoladi tarzida ham uchrashi mumkin.

A.Berdialiyev mazkur gaplarning ikkinchi bosqich funksiyaga nisbatan farqlanishini, ergash gap birinchi gapda bosh gap tarkibidagi *do’sti* so‘zi orqali ifodalangan ega bilan o‘zaro valentlikda ekanini aytib o‘tgan. Ikkinchi gapda esa ergash gap bosh gap tarkibidagi kesim bilan o‘zaro valentlik holatida deya ma’lumot berilgan. Birinchi holatda valentlik qaratqich-qaralmish aloqasida, ikkinchi holatda

³ Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая // Очерки по лингвистике. – М., 1962 – С. 61

⁴ Berdialiyev A. Sintaktik konstruksiyalarda polifunktionallik // O‘zbek tili va adabiyoti. 1981. 2-son. 24 – 27- betlar.



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st November, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

esa predikativ aloqada reallashgan. Bu o‘rinda *Har kim aybsiz do ‘st qidirsa* sintaktik birligi ikki hodisa emas, balki ikki funksiyadagi bir hodisa – sintaktik polifunktionallikdir⁵.

Bu o‘rinda shakl va mazmun falsafiy kategoriyalarining nuqtda reallashishini ko‘rishimiz va polifunktionallikning sintaktik sathda nutq hodisasi sifatida ro‘yobga chiqishini kuzatishimiz mumkin. Bizga ma’lumki, forma va mazmun dialektik birligi assimetriyasi polifunktionallikka yo‘l ochadi.

Professor A.Berdialihev tomonidan bildirilgan fikrlar oldingi nazariy qarashlarni qo‘llab-quvvatlaydi va o‘ziga xos tomonlari bilan farqlanadi. Olimning nazariy qarashlariga ko‘ra, birinchi bosqich funksiya umumiyligi va nihoyatda mavhum bo‘lib, hamma til foydalanuvchilari tomonidan avtonomik tarzda tasavvur qilinadi. Ikkinci bosqich funksiyada esa, semantika va sintaktika tutashadi. Oldingi nazariy qarashlardan farqli o‘laroq, A.Berdialihev sintaktika va semantika faqat ikkinchi bosqich funksiyada kesishadi degan nazariy qarashlarni ilgari suradi. Sodda gaplarda polifunktionallikning yuzaga chiqishi, uning paradigmatica va sintakmatika bilan bog‘liqligi yuzasidan yangi va asosli fikrlarni keltirib o‘tgan. Olim yana shuni e’tiborga olganki, sintaktik polifunktionallikning yuzaga kelishida sintaktik birliklarning ma’lum bir valentlikda reallashgan sintaktik aloqasi muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etgan. Zero, o‘zbek tilshunosligida sintaktik vazifa tushunchasining valentlik tushunchasi bilan bog‘liqligi masalasi tilshunoslardan tomonidan e’tiborga olindi. Natijada mazkur masala yoritilgan tadqiqotlardan yuzaga keldi. Xususan, tilshunos R.Rasulovning “O‘zbek tilidagi holat fe’llarining obligator valentliklari”⁶ deb nomlangan monografiyasini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Tilshunos olim A.Hojiyev affiksal morfemalarda kuzatiladigan polisemiya va unga bog‘liq deya ta’kidlangan polifunktionallik haqida bildirilgan oldingi nazariy qarashlarni tanqid qilgan. Olimning fikriga asosan, qo‘sishchalarida ko‘p ma’nolilik va ko‘p vazifalilik hodisasini ifodalash imkoniyati mavjud emas. Tilshunos olim o‘z fikrlarini *-chi* affaksi misolida quvvatlantiradi. “-chi morfemasi yordamida bir so‘z (so‘z yasalish asosidan) yasalgan so‘z ikki xil ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, *gulchi* yasama so‘zi: 1)gul yetishtiruvchi, 2)gul sotuvchi ma’nosini

⁵ Berdialihev A. Ergash gapli qo‘shma gap konstruksiyalarida semantik-signifikativ paradigmatica. – Toshkent: Fan, 1989. – B 44.

⁶ Rasulov R.O‘zbek tilidagi holat fe’llari va ularning obligator valentlilari. – Toshkent: Fan, 1989. – B.10



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st November, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

bildiradi. Lekin bu ikki ma’no ham -chi morfemasiga xos emas, balki umumiy holatdan anglashiladi”⁷. Tilshunos olim A.Hojiyev affiksal morfemalarning polifunktional va polisemik xarakterda bo‘lishini inkor etadi.

Ammo keyingi yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar orqali affiksal morfemalarda ham polifunktionallik hodisasi kuzatilishi isbotlandi. Qolaversa, affiksal morfemalarning nafaqat so‘z yasash jarayonida balki, qo‘shma gaplarni bog‘lash jarayonida ham polisemiya, polifunktionallik hodisalarini namoyon qila olish imkoniyatiga ega ekani ilmiy dalillar bilan yoritib berildi. Xususan, misol tariqasida olima G.Roziqova, N.Qodirovalarning ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin⁸.

Professor A.Mamajonov qo‘shma gaplar doirasida polifunktionallikning yuzaga chiqishi polisemiya bilan uzviy bog‘liq deya e’tirof etadi. Tilshunos olim sintaktik sathda qo‘shma gaplar doirasida polifunktionallikning ifodalanishi bilan bog‘liq o‘ziga xos va asosli ma’lumotlar beradi. Xususan, qo‘shma gaplardagi polifunktionallikni gaplarning shakliga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritmagan holatda birdan ortiq sintaktik vazifa bajara olish imkoniyati bilan bog‘laydi. Bunga o‘xhash misollarni asosan hol ergash gapli qo‘shma gaplarda yaqqolroq ko‘rish mumkinligini aytadi. Quyidagicha misollar keltiriladi:

Nur borki, soya bor (O‘.Hoshimov).

- 1.Sabab ergash gap – (“nur bo‘lganligi uchun soya bor”).
- 2.Payt ergash gap – (“nur bo‘lganda soya bor”).
- 3.Shart ergash gap – (“nur bo‘lsagina soya bor”)⁹.

Polifunktionallik hodisasiga doir nazariy qarashlarda ham olimlarning fikrlarida turfa xilliklarni kuzatamiz. Tilshunos olim Turniyozov polifunktionallik hodisasini funksional transpozitsiya bilan yondosh hodisa deya ifodalaydi. Olimning fikrlariga asosan, har bir so‘z o‘z funksiyasiga ko‘ra biror bir morfologik kategoriya mansub bo‘ladi. Sintagmatik qator doirasida so‘zlar bir morfologik kategoriyan dan ikkinchi morfologik kategoriya ko‘chirilishi mumkinligini e’tirof etadi: “*Muncha shirin bu bola!* /O‘. Hoshimov. Dunyoning ishlari,^{77/}.

Aytishga oson. *Hammasi ishlik odamlar* / O‘.Usmonov. Sirli sohil, 171/.

⁷ Hojiyev A. . O‘zbek tili morfologiysi,morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent:Fan,2010. – 62-63-b.

⁸ Roziqova G.O‘zbek tilida sintaktik polisemiya. Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Farg‘ona,1999; Qodirova N. O‘zbek tilidagi affikslarda polifunktionallik. Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Toshkent v, 2002

⁹ Mamajonov A.Qo‘shma gap stilistikasi. –Toshkent:Fan,1990. – B. 107-108

Berilgan misollarda *shirin* va *oson* so‘zlari shaklan sifat kategoriyasiga mansubdir. Biroq funksiya nuqtayi nazaridan ular o‘z morfologik kategoriyasi doirasidan uzoqlashgan. Shuning uchun so‘zlarning o‘zaro munosabatga kirishish imkoniyatlari grammatik shakllari va bajarayotgan sintaktik funksiyalari bilan bog‘liq bo‘ladi¹⁰ ”

Polifunktionallik tilning barcha sathlari uchun universal hodisa¹¹, deya e’tirof etgan D.G‘aniyeva birlamchi va ikkilamchi funksiya haqidagi fikrlar borasida Y.Kurilovich g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, shakliy funksiyalarni, o‘z navbatida, fonologik birlamchi-ikkilamchi funksiya, morfologik birlamchi-ikkilamchi funksiya hamda sintaktik birlamchi-ikkilamchi funksiyalarga ajratish mumkin. Lingvistik birliliklarning birlamchi va ikkilamchi funksiyalari tilning barcha sathlarida uchraydi va ularning sinkretik tabiatini ochish, ayni vaqtda, polifunktionallikni belgilashda xizmat qiladi¹². Olimaning izlanishlari keng doirada ekanligi, fonologik, morfemik, morfologik va sintaktik sathda o‘rganilganligi bilan ahamiyatli. Tadqiqotchi D.G‘aniyeva polifunktionallik va sinkretizm hodisalari o‘rtasidagi dialektik munosabatni fe’lning vazifadosh shakllari orqali tadqiq qilgan. Fonologik sathdagi polifunktionallikka shunday dalillar keltirilgan: “*Chiroyli* leksemasi bilan *chiro:yi* leksemasi ifodasini bir-biriga zidlaganimizda, ular o‘rtasida farqlovchi belgi qisqa *o* va cho‘ziq *o*: unlisi bo‘layotganligining guvohi bo‘lamiz. Bu unlilar bir leksemani ikkinchi leksemadan farqlash vazifasini bajarayotgani yo‘q, balki cho‘ziq *o*: unlisi so‘zlovchining ob’yektga emotsiyal-ekspressiv munosabatini ifodalamoqda. Demak, bu o‘rinda unlinking qisqa-cho‘ziqlik belgisiga ko‘ra farqlanishi fonologik funksiya emas, balki emotiv funksiya sanaladi¹³.” Olima fonologik birliklar ma’noga ishora qilishidan tashqari ularning nutqiy vaziyatda so‘zlovchining hissiy-ta’siriy munosabatini ham ifodalay olishini isbot etgan. Shu vaqtga qadar bu kabi hodisalar faqat daraja shakllari doirasida talqin etilgan, ammo polifunktional hodisa sifatida yondashilmagan edi. Professor Sh.Rahmatullayev polifunktionallikka shunday munosabat bildirgan: “Ko‘pma’nolilik hodisasini ko‘pvazifalilik hodisasidan farqlash kerak. Masalan, tushum kelishigi – bir vazifali; lekin bosh kelishik – ko‘p vazifali; bu kelishikdagi

¹⁰ Turniyozov N., Turniyozova K. Funksional sintaksisga kirish. Toshkent: Fan, 2003. –B. 56 – 58

¹¹ Ganiyeva D. O‘zbek tilidagi fe’lning funksional shakllarida sinkretiklik va polifunktionallik: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Toshkent, 2012.

¹² Ganiyeva D. O‘zbek tilidagi fe’lning funksional shakllarida sinkretiklik va polifunktionallik: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Toshkent, 2012

¹³ Ganiyeva D. O’sha manba.





Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st November, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

leksema: 1) ega vazifasida, 2) izohlovchi vazifasida va boshqa vazifalarda keladi. Shu asosda bosh kelishikni ko‘p ma’noli deb bo‘lmaydi¹⁴.” Tilshunos olim dastlab polisemiya va polifunktionallik hodisalarini farqlashga chaqirgan. Ikkala hodisa ko‘p o‘rinlarda juda yaqin bo‘lib, leksik sathda hatto bir xil nutqiy jarayonga o‘xshaydi. Ammo bu hodisalar o‘rtasida farqlanish mavjud. Shuningdek, tilshunos olim morfemik polifunktionallikni sintaktik vazifa bajara olish imkoniyati jihatidan yoritib bergen.

Polifunktionallik bugungi kunda tilshunoslар томонидан турли yo‘nalishlar doirasida o‘rganilmoqda. Xususan, kompyuter lingvistikasi sohasining ichida O‘.Mengliyevning “O‘zbek tili ta’limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari”, Sh.Gulyamovaning “O‘zbek tili semantik analizatorining lingvistik asoslari¹⁵” каби dissertatsiyalarini misol qilish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda polifunktionallik asosan leksik sathda o‘rganilgan va polifunktionallikka polisemiya va omonimiya hodisalarining oralig‘ida turgan hodisa deya baho berilgan. Terminologiyada T.Valiyevning “O‘zbek tili yo‘lsozlik terminlarining struktur-semantic xususiyatlari va leksikografik talqini”¹⁶ nomli dissertatsiyasida ham polifunktionallik o‘rganilgan va mazkur hodisaga nisbatan polisemiyadan ancha uzoqlashgan, ammo omonimlikka hali yetib bormagan nutq hodisasi deya baho berilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, polifunktionallik birlamchi funksiyaga qo‘srimcha ravishda ikkilamchi funksiyaning ham namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq hodisa. Polifunktionallik haqidagi olimlarning fikri turlicha ekan, mazkur hodisa o‘zining yangi tadqiqotlardagi yechimini kutib turibdi. Yana shuni ham aytish joizki, kompyuter lingvistikasi doirasida semantik analizatorining lingvistik asoslari кabi mavzular bugungi kun uchun tilshunoslik doirasida muhim masala va bu masalaning bir tomoni borib polifunktionallik bilan tutashadi. Shu sababdan ham polifunktionallik hodisasiga nisbatan aniq grammatik qonuniyatni taqdim etish va amaliy tishunoslikka joriy etish masalasi ham muhim sanaladi. Polifunktionallik tilning turli sathlarida uchrar ekan, har bir sathda polifunktionallik hodisasiga aynan o‘sha sath qonuniyatlaridan kelib chiqib yondashish zarur. Sintaktik sathda polifunktionallikning yuzaga chiqishini valentlik, sintaktik vazifalarning bir o‘rinda

¹⁴ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – B. 125

¹⁵ Mengliyev O’.O‘zbek tili ta’limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filol.fan.bo‘yicha fal. doktori(PhD) dis. avtoref. – Termiz, 2021; Gulyamova Sh. O‘zbek tili semantik analizatorining lingvistik asoslari. Filol.fan.doktori (DSc) dis. avtoref. – Farg‘ona, 2021

¹⁶ Valiyev T. O‘zbek tili yo‘lsozlik terminlarining struktur-semantic xususiyatlari va leksikografik talqini. Filol.fan.bo‘yicha fal. doktori(PhD) dis. avtoref. – Samarqand, 2017



turlicha ekanligida ko‘rsak, morfemik yoki fonologik sathda esa o‘ziga xos tarzda kuzatamiz.

Adabiyotlar:

1. Berdialiyev A. Ergash gapli qo‘shma gap konstruksiyalarida semantik-signifikativ paradigmata. – Toshkent: Fan,1989.
2. Berdialiyev A. Sintaktik konstruksiyalarda polifunktionallik // O‘zbek tili va adabiyoti. 1981. 2-son. 24 – 27-betlar.
3. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiysi,morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent:Fan,2010.
4. Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая // Очерки по лингвистике. – М.,1962.
5. Mamajonov A.Qo‘shma gap stilistikasi. –Toshkent:Fan,1990.
6. Qodirova N. O‘zbek tilidagi affikslarda polifunktionallik. Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Toshkent, 2002.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
8. Rasulov R.O‘zbek tilidagi holat fe’llari va ularning obligator valentlilari. – Toshkent: Fan,1989.
9. Roziqova G.O‘zbek tilida sintaktik polisemiya. Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Farg‘ona,1999.
10. Sulaymonova G. O‘zbek tilida ot turkumidagi so‘zlearning polifunktionalligi: Filol.fan.nomzodi...diss.avtoref. – Toshkent, 2010.
11. Turniyozov N.,Turniyozova K. Funksional sintaksisga kirish.Toshkent: Fan, 2003.
12. Valiyev T.O‘zbek tili yo‘lsozlik terminlarining struktur-semantik xususiyatlari va leksikografik talqini. Filol.fan.bo‘yicha fal. doktori(PhD) dis. avtoref. – Samarqand, 2017.
13. G’aniyeva D.A.O‘zbek tilidagi fe’lning funksional shakllarida sinkretiklik va polifunksinallik:Filol.fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Toshkent, 2012.